

TA'LIM JARAYONIDA VARIATIV TUSHUNCHALARNI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON OLIMLARINING ILG'OR G'OYALARI

Bobomurotov Sirojiddin Mengziyo o'g'li

**Termiz davlat pedagogika institute Boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrası o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8424004>

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlarni o'qitishda ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish asosida o'qitishni takomillashtirish, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini fanlararo aloqadorlik mazmunida amalga oshirish, tabiat va jamiyat o'rtasidagi hodisa va jarayonlar o'zgarishlari mazmun-mohiyatini anglash, mazkur o'quv fanlari mazmunidagi ilmiy tushunchalarni yaxlit tasavvur qilish, ularni amaliyotga qo'llash orqali o'quvchilarda ilmiy dunyo qarashni shakllantirish jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, o'quvchilar, o'qitish, invariant, variativ, tushunchalar, shakllantirish integratsiya, dars, ta'lim-tarbiya, innovatsiya, fanlararo aloqadorlik, muammoli vaziyat, ilmiy tushunchalar, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, o'qitish, samaradorlik.

Dunyo miqyosida fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish bilan bir qatorda ta'lim jarayonida o'quvchilarni individual yondashuv asosida intellektual rivojlantirishning didaktik parametrlarini aniqlashtirish, o'quvchilarning iqtidori va qobiliyatini shakllantirishda uzliksiz ta'limning asosiy bog'ini hisoblangan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tabiatga oid ilk invariant va variativ tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, yoshlarni tabiat elementlari vositasida tarbiyalashda g'arb pedagoglari ham o'z merosini qoldirishgan. Ularning yirik vakillaridan biri Yan Amos Komenskiy, Chexiyalik mashhur pedagog. U o'zining ongli hayotini va amaliy pedagogik faoliyatini, yaratgan ilmiy asarlarida bolalarni o'qitish va tarbiyalashdek, oliyjanob ishga bag'ishlagan.

Ya.A.Komenskiy maktablarning 4 turini yilning 4 fasliga o'xshatgan. "Onalar maktabi" xushbo'y o'simliklar, g'uncha va gullarga burkangan ajoyib bahorni eslatadi. "Ona tili" maktabi yozga va ayrim erta pishgan mevalarga o'xshaydi. "Gimnaziya" da dalalar, bog' va terakzorlardagi mo'l hosilni yig'ib, uni "aql xazinasiga" joylayotgan kuz faslini eslatadi. Va nihoyat, "Akademiya" yig'ilgan hosilni umr bo'yi sarflashni mo'ljallab taqsimlayotgan qish faslini eslatadi. Ya.A.Komenskiy "Onalar maktabi" da 18 ta fandan ma'lumot olishni tavsiya etgan. Uning fikricha olti yashar bola: suv, yer, havo, olov, yomg'ir, qor, muz, tosh, temir, daraxt, o't, qush, baliq kabilarni hamda yorug'lik va qorong'ulikning farqini, osmon, quyosh, oy, yulduzlar haqidagi bilimlarni, ularning har kuni chiqishi va botishi haqidagi tasavvurlarni o'zi yashayotgan joyning xususiyatiga muvofiq tog', vodi, dala, daryo, qishloq, shahar nima ekanligini bilishi kerak deb, hisoblaydi.

Ya.A.Komenskiy hamma narsani tabiatga bog'lab tushuntirgan. U o'quvchilar diqqatini jalb etish uchun kitoblarning nomini qiziqarli nomlab, mazmunini to'liq ifodalab bergan. Uning aytishicha, bu sohada mavjud narsalardan eng chiroylisi bog'ning turli manzaralaridan namuna olishdir. Masalan, nega endi 1- sinf uchun bitilgan kitobni "Gunafsha jo'yagi", 2- sinf kitobini - "Atirgul tupi", 3-sinf kitobini-"Istirohat bog'i" va hokazo deb nomlash mumkin emas? Ya.A.Komenskiy bolalarni tabiat qo'ynida tarbiyalash kerakligini o'zining boshqa asarlarida ham ochib bergan.

Shuningdek, Y.A.Komenskiy didaktikasida, tabiiy ta'lim usuli izchil ifodalangan bo'lib, uning fikriga ko'ra tabiiy qonunlar va pedagogik qonunlar muvofiqligi ta'minlagan bo'lishi kerak. Inson tarbiyasi bolalikdan boshlanishi, o'qish va o'rgatishni bola yoshiga qarab tashkil etilishni ilmiy jihatda asoslashga harakat qilgan hamda pedagogik qonunlarining formulalarida tabiat qonunlariga asoslanib, "Tabiat unga shakl berishni boshlashdan oldin o'zi uchun material tayyorlaydi. Tabiatning har qanday shakllanishi eng umumiydan boshlanadi va o'ziga xoslik bilan tugaydi" deb, ta'kidlaydi.

I.G.Pestalossi o'z zamonasining mashhur pedagogi bo'lgan. Uning fikrlari haligacha pedagogika sohasida qo'llanib kelinadi. Uning "Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi", "Kuzatish alifbosi", "Son to'g'risida ko'rsatmalik ta'lim", "Oqqush qo'shig'i" kabi asarlarni yaratdi. I.G.Pestalossining fikricha, bolaga berilayotgan tarbiya tabiat bilan uyg'un bo'lishi kerak.

I.G.Pestalossi bolalarning aqliy kamolotini o'stiruvchi quyidagi didaktik qoidalarini olg'a suradi:

1. Ta'limning tabiat bilan uyg'unligi.
2. Oddiydan murakkabga yo'naltirish.
3. Bolaning kuch va qobiliyatiga moslashtirish.
4. Ko'rsatmalilik.

I.G.Pestalossi boshlang'ich ta'lim xususiy metodikasining asosini yaratdi. Bunda u ona tili, geografiya, o'lkashunoslik fanlaridan elementar ta'lim berish mazmunini asoslab berdi va bola tilini boyitish uchun geografiya, tibbiyot fanlarining ham uzviy ravishda olib borilishini tavsiya etgan.

Shuningdek, I.G.Pestalotssi insonni mukammal mavjudot, deb hisoblagan va tarbiyalashda tabiatga moslik g'oyasini ilgari surgan holda ta'lim jarayonini inson tabiati xususiyatlariga, uning rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq ravishda tashkil etish lozimligini ta'kidlagan. Shuningdek, u insonning barcha kuchlari va qobiliyatlarini uyg'un rivojlanishi ta'limning asosiy maqsadidir, degan qarashni ilgari suradi.

G'arb va Sharq olimlarining bizga qoldirgan ma'naviy va moddiy meroslarida tabiatni qanday asrab-avaylash va foydalanish haqida ko'rsatmalar berilgan va shu ko'rsatmalar orqali o'qitishga oson bo'lgan materiallarni tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Ko'rsatmalarga binoan tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonli va jonsiz tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simlik va hayvonot olami kiradi.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o'ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Insonning barqaror taqdiri va istiqbolli kelajagi uchun tabiat bilan o'zaro munosabatlarning zamonaviy pedagogik metodlariga tanyangan fan dasturlarini ishlab chiqish va ijtimoiy falsafiy g'oyalar bilan to'yintirilgan madaniy yondashuvlarni inson hayotining ajralmas

qismiga aylantirish yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari salmog'i va samaradorligini oshirish davr talabidir.

Ushbu masalada yerdagi hayotning o'zi tabiiy hodisa ekanligi, shaxs va tabiat munosabatlarining o'zaro uyg'unligi ammo ta'sir doirasini kamaytirish yuzasidan ijodiy salohiyatining uzluksiz rivojlanishi uchun sharoit yaratish, shaxsning atrof-muhit uchun samaradorligi uning ma'naviy va axloqiy rivojlanishining eng muhim xarakterli xususiyat ekanligi, insonni tabiiy-ijtimoiy mavjudot va tabiatning fikrlovchi qismi sifatida talqin qilishi, insonning tabiat bilan birlashishi va dunyoni yangicha idrok etish orqali yuksak ma'naviyatga yo'l ochishi nazariyasi, umumiy birlik va o'zaro bog'liqlik g'oyasi asosida yoshlarga ta'lim-tarbiya berish ishning yana bir metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu masalada fikr yuritgan tadqiqotchi D.Ye.Gurikov o'z ta'limotida inson va umumbashariy hayot taqdirini birlashtirish, tabiatni tartibga solish loyihasida inson o'zini o'zi anglashi uchun misli ko'rilmagan darajada axloqiy mezonlarga tayanishi va bu jarayon insonni tabiat bilan munosabatlarining butun sohasini qamrab olishi lozimligini ta'kidlaydi.

V.I.Vernadskiy konsepsiyasiga ko'ra tabiat doimo rivojlanishda, o'zini o'zi tartibga solish va davolash xususiyatga ega bo'lgan tamoyillarga asoslangan tabiiy jarayoni mahsulidir. Bu borada V.I.Vernadskiy fikriga qo'shilish mumkin, bugungi kundagi ekotizim halokati uning rivojlanish va o'zini o'zi davolash jarayoniga inson tomonidan doimiy ta'sir ortib borayotganligidadir.

V.A.Suxomlinskiy maktabda ekologik muammolarni hal qilish va o'quvchilarni tabiat bilan tanishtirish yuzasidagi bilimlardan maqsadli foydalanish lozim. O'quvchilarga ekologik tarbiyani singdirishning ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etgan holda amaliy - tarixiy bilimlar tizimi bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlash zarur.

K.D.Ushinskiy ta'lim bolaning har tomonlama rivojlanishi va shakllanishi, xarakter xususiyatlarining barcha murakkab jihatlarini, tabiiy va ijtimoiy muhit bilan munosabatlarining barcha jabhalarini o'rganish va ochib berish asosida yaxlit ilmiy tizimni taklif etgan. Ushbu ilmiy tizim bolani tarbiyalashda millat g'oyasiga egalik qiladi, ya'ni millatga xos barcha urf-odatlar inson bolasining tabiat bilan bo'lgan munosabatlaridan kelib chiqadigan an'anadir deb, ta'kidlaydi.

I.Y.Lernerning ta'kidlashicha, o'quvchilar faoliyatining maktab o'quv jarayonidan tashqarida kengayishi ular o'zlashtiradigan bilimlar doirasiga yangilarini ham kiritishni talab qiladi. Shu bilan bir qatorda, ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari yangi bilimlar bilan boyitilishi kerak. Shu tariqa boshlang'ich ta'lim mazmuniga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish uchun taqdim qilinadigan tabiiy bilimlarning o'quvchilar faoliyatiga singishiga e'tibor qaratish lozim.

S.D.Deryabo kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning 50% kattalar tomonidan taklif qilingan topshiriqlardan foydalangan holda "Tabiat bizning eng muhim boyligimiz", "O'rmonni himoya qilish kerak, chunki qalam undan yaratilgan" bu antropotsentrik, pragmatik maktab ta'limi natijasi deb baholanadi. Maktab o'quvchilarining tabiatga bo'lgan shaxsiy munosabatini tahlil qilgan tadqiqotchi V.A.Yasvin tabiatga bo'lgan intensivlikning yosh davrini maksimal nuqtasini 10-11 yosh deb izohlaydi.

Xususan, psixologik S.D.Deryabo, o'quvchining tabiatga bo'lgan subyektiv munosabatini o'rganib, ikkita: modallik va mazmunli xususiyat (har qanday rol subyekt yoki obyekt inson uchun subyektiv ravishda ishlashi, tabiiy obyektlar va o'zaro ta'sirning qaysi maqsadlari

ustunlik darajasi) hamda intensivlik ko'rsatkichi sifatida u yoki bu tabiatga bo'lgan munosabat qaysi sohalarda va qay darajada namoyon bo'lishligining asosiy parametrini ajratib ko'rsatdi. Uning ta'kidlashicha, boshlang'ich sinf yoshida bola maktabgacha yoshdagi davrga xos bo'lgan egotsentrizmni asta-sekin engib chiqadi, o'zining "men" ini atrofidagi olamdan aniq ajrata boshlaydi. Biroq, hayotiy tajribaning kengayishi tabiiy obyektlar subyektlasha boshlanishiga olib keladi va ko'plab kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun ular "muhim jarayon" bo'lib qoladi.

Ushbu qarashlarda o'quchining atrof-muhit bilan psixologik munosabatlar bevosita o'zaro aloqada shakllanadigan jarayon bo'lib, uning ichki munosabatini aks ettiruvchi ruhiy holatlarda namoyon bo'lishligi nazarda tutilgan. Ta'kidlash joizki, bu borada eng avvalo, ma'lum ehtiyojlar, shuningdek, qadriyat yo'nalishlari va e'tiqod, qiziqish, orzu va istak, maqsad, hissiy kechinma va iroda, aqliy faoliyat darajasi asosiy omil hisoblanishi zarur.

References:

1. Ahliddinov R. Hozirgi bosqichda pedagogik boshqaruvning dolzarb muammolari //Respublika ilmiy-amaliy konf. mat.-T.: O'zPFITI, 2002. - 46 b.
2. Valixonov M.N.Tabiatshunoslikning zamonaviy konsepsiyasi. T.: 2003. 120 b.
3. Mirzaxmedova Sh.M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatga bo'lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari: p.f.n., diss.... - T.: O'zPFITI, 2006. - 175 b.
4. Ma'murov B.B. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-bilish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart - sharoitlari. Monografiya.- T.: "Nihol", 2014. -94-b.
5. Muhammadiyev K.B. O'quvchilarnn atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatda bo'lishga tayyorlash nazariyasi va amaliyoti. -T.: Fan va texnologiya, 2014, 172 b.
6. Narbutaev H.B. Improving the knowledge of ecological content in pupils in interdiscipline for teaching biology. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECS) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I7.110 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 07 2022.